XALQ DEPUTATLARI TOSHKENT VILOYATI KENGASHINING
Q A R O R I

2023 - yil 24 - noyabr VI-83-109-10-0-K/23 Toshkent viloyati hokimiligi

Parkent tumani “Cho‘qqayma” MFY, Oqqo‘rg‘on tumani “Birlik” MFY, Bekobod shahar “Taqachi” MFYda tashkil etilgan kichik sanoat zonasini tugatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari – J.A.Xodjayev tomonidan 2023-yil 25-iyulda tasdiqlangan, Tashqi savdo, investitsiyalar, mahalliy sanoatni rivojlantirish va texnik jihatdan tartibga solish masalalari bo‘yicha Hukumat komissiyasining 64-sonli bayoniga asosan, Parkent tumani “Cho‘qqayma” MFY hududidagi 1,0 gektar, Oqqo‘rg‘on tumani “Birlik” MFY hududidagi 1,2 gektar yer maydonlarida, Majburiy ijro byurosidan joriy qarzdorliklar mavjudligi sababli tashkil etilishi belgilangan kichik sanoat zonalarini bekor qilish hamda Bekobod shahar “Taqachi” MFY hududidagi 17,7 gektar yer maydonida tashkil etilgan kichik sanoat zonasining 0,73 gektar qismining kichik sanoat zonasi maqomi bekor qilish belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 9-martdagi "Kichik sanoat zonalari to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash" haqidagi 134-sonli qarori, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligining 2023-yil 16-avgustdagi 02-13-09-641-sonli xulosasi hamda viloyat hokimligining 2023-yi1 21-avgustdagi 5-4-37-82-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq Xalq deputatlari Toshkent viloyati Kengashi,

Q A R O R Q I L A D I :

1. Viloyat hokimi o‘rinbosari – Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig‘i N.Sharipovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Parkent tumani “Cho‘qqayma” MFY hududida joylashgan umumiy maydoni 1,0 gektar bo‘lgan kichik sanoat zonasi;

Oqqo‘rg‘on tumani “Birlik” MFY hududida joylashgan umumiy maydoni 1,2 gektar bo'lgan kichik sanoat zonasi;

Bekobod shahar “Taqachi” MFY hududida joylashgan kichik sanoat zonasining 0,73 gektar qismi tugatilsin.

4. Viloyat hokimi o‘rinbosari – Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig‘i Najmiddinxodja Sharipov, viloyat kichik va yoshlar sanoat zonalarini boshqarish bo‘yicha direksiya direktori Nurbek Rajabovlar kichik sanoat zonasini tugatish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni muddatida va sifatli amalga oshirishini ta'minlasinlar.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari viloyat Kengashi Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi Muradjan Nasirov hamda viloyat hokimi o‘rinbosari – Investitsiyalar va tashqi savdo boshqarmasi boshlig‘i Najmiddinxodja Sharipov zimmasiga yuklatilsin.

Xalq deputatlari viloyat kengashi raisi **Z.Mirzayev**